

AHMAD TABIBIY MUSADDASLARIDA ARUZ VAZNI

Azizbek Toshpo'latov Ikromjon o'g'li

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

azizbektoshpulatov1907@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15011474>

Annotatsiya. Mazkur maqola Ahmad Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devonidan o‘rin olgan musaddaslarda qo‘llangan aruz vaznlari tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada Tabibiy ijodida ramal, hazaj va muzori’ bahrlari hamda ularning turli ko‘rinishlari qo‘llanilgani atoqli adabiyotshunoslar fikrlari va vaznlar taqti’si bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: aruz, bahr, she’riy vazn, hazaj, ramal, muzori’, musaddas, g‘oya.

Annotation. This article is dedicated to the analysis of aruz meters used in musaddas poems from Ahmad Tabibiy’s divan “Munisu-l-ushshoq”. The article demonstrates the use of ramal, hazaj, and muzori’ meters and their various forms in Tabibiy’s works, supported by opinions of prominent literary scholars and syllabic analyses of the meters.

Keywords: aruz, bahr, poetic meter, hazaj, ramal, muzori’, musaddas, idea.

Xorazm adabiy muhitida ko‘plab badiiy barkamol asarlar ijod etilgan. Darhaqiqat, o‘zbek madaniy hayotida bu adabiy muhitning o‘rni beqiyos. Aynan Ahmad Tabibiyning ijodda kamol topishida ana shunday an‘analarga ega muhitning ta’siri katta bo‘lgan.

Mumtoz adabiyotida aruz vazni shuaro mahoratini belgilaydigan muhim adabiy-estetik omillardan biri hisoblanadi. Chunki “...she’riy asarda tanlangan vazn va shoirning undan foydalanishdagi mahoratini kashf etish ijodkorning badiiy salohiyati darajasini belgilashga imkon berishi shubhasiz. Zero, har qanday she’riy asarda vazn tasodifiy tanlanmaydi. Ijodkor o‘z g‘oyaviy-badiiy niyatidan kelib chiqqan holda o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyalar, tasvirlamoqchi bo‘lgan lirik yoki epik timsollar, asarda aks ettiriluvchi voqealar, hissiyotlarni yuksak badiiyat bilan jilolantirishga qo‘l keladigan she’riy o‘lchovlarga murojaat etadi, ularning ritm-ohang imkoniyatlari zaminida ta’sirchan, mazmundor va nafis misralar, baytlar, bandlar yaratadi” [1:4]. Lirik asarlari tadqiqi Ahmad Tabibiy ham o‘z ijodida aruz vazni imkoniyatlaridan samarali foydalanganini ko‘rsatadi.

Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devonidan o‘rin olgan murabba’ va musaddaslarida aruzning ramal (1 murabba’, 2 musaddas), hazaj (3 murabba’, 3 musaddas), muzori’(2 musaddas) bahriga oid ijod namunalari uchraydi.

Shoirning “*Umring o‘tkarma tamoshoi gulu gulshan ila...*”, “*Zor-u rasvoyi jahon etgali jonona mani...*” va boshqa ko‘plab she’rlari ramal bahri (*ramali musammani maxbuni mahzuf*)da ijod etilgan. Professor Anavar Hojiahmedov ham ushbu vazn haqida shunday ma’lumotni keltiradi: “Mazkur vaznda yozilgan dastlabki she’rlar kam bo‘lsa-da, Xofiz Xorazmiy (3 g‘azal) ijodida uchraydi. Alisher Navoiy ushbu o‘lchov imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘zining 21 g‘azali va 2 muammosini uning asosida yaratgan edi. Ushbu vazn XVI—XIX asr o‘zbek shoirlari ijodida ham qo‘llanib turdi” [2:126]. Tabibiyning quyidagi musaddasi bunga misol bo‘la oladi:

Zor-u rasvoyi jahon etgali jonona mani,

Dardu ranj ila qilib hamdamu hamxona mani,

O‘rtanur holima ko‘rgan chog‘i parvona mani,

Qildi bir jilva bila ishqida devona mani,

Tong emas xalq agar aylasa afsona mani,

Kim xiraddin g'ami ishq ayladi begona mani.

Taqti'si quyidagicha: foilotun, failotun, failotun, failun

—V — —/ VV — —/ VV — —/ VV —

Shoirning ramal bahridagi ikkinchi musaddasi quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Umring o'tkarma tamoshoi gul-u gulshan ila,

Tut barobar oni gar oqil esang gulxan ila,

Chekibon ranj-u balo borini jon-u tan ila,

Borho ulfat etib sohibi ilm-u fan ila,

Dushman ar qilmasa olamda madoro san ila,

San madoro qila ko'r jahd etibon dushman ila.

Taqte'si quyidagicha: foilotun failotun failotun failun

— V — — / V V — — / V V — — / V V —

O'zbek she'riyatida keng foydalanilgan bu vaznlarda musaddas va boshqa tipda asarlar yaratgani Tabibiyning aruz qoidalarini puxta egallagani isbotidir.

Shoir ijodida sermahsul foydalangan vaznlaridan yana biri hazajdir. Tabibiyning “Munisulushshoq” devonidagi murabba' va musaddaslaridan 6 tasi ayni shu vaznda yozilgani buning isbotidir.

Adabiyotshunoslikka oid lug'atlardan birida hazaj bahri haqida quyidagilar zikr qilinadi. “Hazaj o'zbek mumtoz she'riyatida eng faol bahrlardan biri sanaladi. Jumladan, “Xazoyin ulmaoniy” kulliyotiga kiritilgan g'azallarning 669 tasi (taxminan 22 foizi) hazajda yozilgan. O'zbek she'riyatida hazaj bahrining, asosan, sakkiz va olti ruknli o'ttizdan ortiq vaznidan keng foydalaniladi” [3:399]. Xuddi shunday ko'lamdorlikni Tabibiy murabba' va musaddaslarida ham kuzatishimiz mumkin.

Tabibiy lirikasida hazaj bahrining boshqa tarmoqlaridan ham unumli foydalanilgan. Jumladan, shoirning Feruz g'azaliga tasdis qilingan quyidagi matla'li musaddasi *hazaji musammani ashtar* tarmog'ida ijod etilgan:

Man hazinni, ey dilbar, sarfarozi davron qil,

Xotiri g'amimni ham vasling ila shodon qil,

Kulbai xarobimni rashki bog'i rizvon qil,

Holima tarahhum et, mushkulimni oson qil,

Gul yuzung ochib, ey gul, majlisim guliston qil,

Mehri orazing uzra kokiling parishon qil.

Taqti'si quyidagicha: foilun mafoiylun foilun mafoiylun

— V — / V — — — / — V — / V — — —

Alisher Navoiy hazaj bahri musamman ko'rinishining o'n ikki xiliga to'xtalib o'tganlar. Negadir, “Mezonu-l-avzon” da *hazaji musammani ashtar* shakliga misollar yo'q. Ogahiy, Furqat, Feruz, Tabibiy kabilar ijodida *hazaji musammani ashtar*da bitilgan ko'plab she'rlarni uchratish mumkin. Nazariyotchi olim A.Hojiahmedov *hazaji musammani ashtar* haqida to'xtalib: “Ushbu o'lchov XVI asrga qadar turkiy adabiyotlarda, jumladan, o'zbek shoirlari ijodida qo'llanmagan ko'rinadi. Zero, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy, Hofiz Xorazmiylar ijodida ushbu o'lchov asosida yozilgan she'rni uchratmaymiz. Mazkur vaznni Alisher Navoiy “Mezonu-l-avzon”da tilga ham olmaydi, uning asosida o'zi ham turkiy she'r yozmagan. Bu o'lchovdagi dastlabki she'rlar Bobur ijodida uchraydi. Shoir o'zining “Muxtasar” asarida bu vaznni “musta'mali matbu”, ya'ni yoqimli o'lchovlar qatorida sanab, Jomiy va Xofizlar ijodiga murojaat qiladi hamda turkiy she'rga misol

tariqasida o'zining g'azali baytlarini keltiradi. Bu Boburning ushbu o'lchovda yozilgan yagona g'azali edi" [4:204], – deb qayd etadi.

Tabibiy aruzning keng qo'llanadigan vaznlaridan birida ham ijod qilgan. Ijodkorning hazaj bahridagi tab'i xud musaddaslaridan yana biri *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* vaznida bitilgan:

*Yo rab, man etib gunah mani shum,
Bo'ldum gunah ismi birla marsum,
Ko'nglumga ibodat ishi ma'dum,
Holim sanga keldi barcha ma'lum,
Lutfingdin ayo G'afur-u Qayyum,
Man zor-u hazinni qilma mahrum.*

Tahti'si quyidagicha: maf'uvlu mafoilun fauvlun

-- V / V - V - / V --

Bu vazn haqida A.Hojiahmedovning ushbu fikrlari ahamiyatli: "... XIV asrdan boshlab XX asr boshlariga qadar shoirlarimiz ijodida keng qo'llanib kelgan. Uning asosida faqat lirik she'rlargina emas, balki Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni kabi yirik badiiy obidalar ham yaratilgan. Ushbu o'lchov "Shashmaqom"ning "Soqiynomai mo'g'ulchai dugoh", "Ufori mo'g'ulchai segoh", "Iroq" maqomining IV taronasi kuylariga mosdir" [5:198]. Ma'lumki, Tabibiy lirik asarlari tahlili shoirning musiqa ilmidan ham nechog'li mahoratli bo'lganini ko'rsatadi.

Tabibiy musaddaslari aruzning turli vaznlarida yozilgan. Ular g'oya va badiiyat jihatidan salaflar ijodiga hamohang. Shoir ta'bi xud musaddaslarida, asosan, aruzning hazaj, ramal, muzori' kabi vaznlaridan foydalangan. Tasdis musaddaslari esa muzori' va hazaj bahrlarida bitilgan.

Tabibiy tasdis musaddaslari tarkibida muzori' bahrida yozilgan namunalar ham mavjud. Lug'atlarda muzori'ga shunday ta'rif beriladi: "Muzori' (arabcha – o'xshovchi) aruz bahrlaridan biri, hazaj bahriga o'xshagani uchun shunday nomlangan. Muzori' she'riyatimizda ancha keng qo'llanadigan bahrlardan sanaladi. Navoiyning "Mezonu-l-avzon" asarida muzori'ning o'n ikki turi, Boburning "Muxtasar"ida uning yigirma to'rt turi misollar bilan ko'rsatib berilgan. "Qisasi Rabg'uziy"dan boshlab Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy kabi mumtoz shoirlar ijodida ham muzori' bahrining bir necha turlaridan foydalanilgan. Xususan, Navoiyning "Xazoyinu-l-maoniy" devonidagi 105 ta turli janrlardagi she'rlar mana shu bahrda yaratilgan" [6:189], – deb zikr qilinadi.

Professor Anvar Hojiahmedov esa bu bahr haqida shunday deydi: "Muzori' bahri vaznlari she'riyatimizda XIV asr boshlaridanoq qo'llana boshlagani ma'lum. Chunonchi, "Qisasi Rabg'uziy"da muzori' bahrining to'rt ruknli va sakkiz ruknli o'lchovlaridan foydalanilgan. Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiylar ham mazkur bahrning yoqimli o'lchovlarini ancha keng qo'llagan edilar. Muzori' bahri Alisher Navoiyga maqbul bo'lgan o'lchovlardan sanaladi. Uning "Xazoyinu-l-maoniy" sidagi jami 105 she'rning, jumladan, 81 g'azali, 11 qit'asi, 6 muammosi va 7 fardining ushbu o'lchov turlarida bitilganligi fikrimizga dalil bo'la oladi. Muzori' bahri XVI-XIX asrlarda ham shoirlarimizning sevimli o'lchovlaridan biri bo'lib xizmat qildi" [7:75-76].

D.Yusupova "Navoiy she'riyatida mazkur bahr (Muzori' – A.T.)ning faqat musamman shaklidan foydalanilgani" [8:101] – haqida ma'lumot beradi.

O'zbek adabiyotida bu bahrning qo'llanish doirasi sermahsul. Ular orasida boshqalariga nisbatan kengroq qo'llaniladiganidan biri muzore'i musammani axrabdir. Ahmadjon

Tabibiyning tasdis musaddaslaridan biri ham aynan shu vaznda yozilgan:

*Kulbam ichra keldilar ushbu kecha jononlar,
Har birisi iqlimi husn ichra sultonlar,
Ko'rguzub necha turluk man hazing'a ehsonlar,
Yetkurub zamirimg'a behjati farovonlar,
Qildilar ko'zim ravshan orazi duraxshonlar,
Komim etdilar shirin la'li shakkarafshonlar.*

Tahti'si quyidagicha: maf'uvlu foilotun maf'uvlu foilotun

- - V / - V - - / - - V / - V - -

Tabibiy Ogahiy ijodidan ilhomlanib, uning g'azaliga musaddas tasdis qilgan. Shoirning ushbu musaddasi ham muzori' bahrida bitilgan. Misol sifatida shoirning quyidagi band bilan boshlanuvchi musaddasini keltirish mumkin:

*Qilmas edim bu yanglig' hargiz gumon tag'oful,
Kim qildi kulfatimni behaddu son tag'oful,
Jismimni g'am o'tig'a aylab makon tag'oful,
Ne qilg'amen desam man bexonumon tag'oful,
To mandin, ey parivash, qilding ayon tag'oful,
Aylar manga damo-dam yuz qasdi jon tag'oful.*

Tahti'si quyidagicha: maf'uvlu foilotun maf'uvlu foilotun

- - V / - V - - / - - V / - V - -

Ahmad Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devonidagi lirik asarlarda qo'llangan vaznlar turlicha. Xulosa qilib aytganda, shoir ijodida aruz vazni masalasi muhim o'rin tutgan bo'lib, u o'zbek mumtoz adabiyotining aruz tizimidan mahorat bilan foydalangan. "Munisu-l-ushshoq" devonidagi lirik asarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Tabibiy asosan ramal, hazaj va muzori' bahrlaridan unumli foydalangan. Uning ijodiy merosida musammatlar salmoqli o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Ҳожиаҳмедов А.Ўзбек арузи луғати. –Тошкент: Шарқ, 1998. –В. 4.
2. Ҳожиаҳмедов А.Ўзбек арузи луғати. –Тошкент: Шарқ, 1998. –В. 126.
3. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б. 399.
4. Ҳожиаҳмедов А.Мумтоз бадиият малоҳати. –Тошкет: Шарқ, 1999. – Б. 204.
5. Ҳожиаҳмедов А.Ўзбек арузи луғати. –Тошкент:Шарқ, 1998. –В.198.
6. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б. 189.
7. Ҳожиаҳмедов А.Ўзбек арузи луғати. –Тошкент:Шарқ, 1998. – В. 75-76.
8. Yusupova D.Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari(O'quv qo'llanma). – Toshkent:Ta'lim-media, 2019. – В. 101.